Xalq sözi

Özbekiston – kelajagi buyuk davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRIŞ VA JAMIYATNI YUKSALTIRIŞ YILI

1991-yil 1-yanvardan çiqa boşlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2026-yil 23-oktabr, № 223 (9394) Juma

Saytimizga ötish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

BUNYODKORLIK RUHI QAŞQADARYONING YANGI QIYOFASINI YARATMOQDA

Özbekiston Respublikasi Prezidenti Şavkat Mirziyoyev 21-22-oktyabr kunlari ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayonlari bilan tanişiş uçun Qaşqadaryo viloyatida böldi.





Davlatimiz rahbari 22-oktyabr kuni Qaşqadaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirişga bağişlangan yiğiliş ötkazdi.

Prezident Şavkat Mirziyoyev sözini yiğiliş iştirokçilarini Özbek tili bayrami bilan tabriklaşdan boşladi. Qaşqadaryo farzandi, Özbekiston Qahramoni va davlat madhiyamiz muallifi Abdulla Oripovning ona tilimiz rivojiga qöşgan hissasini alohida e'tirof etdi.

– Viloyatning şahar va tumanlarida, mahallalarida bölgan özgarişlarni, tadbirkor, investor, yoşlarning közlaridagi şijoatni körib, juda katta kuç oldim, – dedi davlatimiz rahbari.

Bir neça yil avval eng murakkab vaziyatdagi hududlardan biri bölgan Qaşqadaryoni yil yakuniga qadar kambağallik va işsizlikdan xoli hududga aylantiriş maqsad qilingan. Joriy yilning töqqiz oyida sanoat, xizmatlar va qişloq xöjaligida ösişga erişildi. Biroq viloyatning hozirgi natijalari uning boy resurslari va inson salohiyatiga hali töliq mos kelmayotgani ta'kidlandi.

Qaşqadaryo iqtisodiyotining ösişi uçun, avvalo, sanoatda qöşilgan qiymatni oşiriş zarur. Viloyatdagi gaz, elektr energiyasi va yer osti boyliklari tayyor mahsulot işlab çiqarişga xizmat qilişi kerakligi körsatib ötildi. Şu maqsadda "GTL" zavodidagi yangi loyihalar, naftadan polimer va neft-kimyo mahsulotlari oliş, Dehqonobod kaliy zavodi quvvatini kengaytiriş hamda kiçik tonnajli kimyoni rivojlantiriş imkoniyatlari körib çiqildi. Mas'ullarga 20 milliard dollarlik loyihalar va 50 ming iş örnini qamrab oladigan uç yillik dastur tayyorlaş topşirildi.

Bu loyihalar yirik korxonalar atrofida mahalliy işlab çiqaruvçilarni ham birlaştirişi lozim. Şuning uçun viloyatda oltita sanoat klasteri taşkil etiladi, "Qaşqadaryo" erkin iqtisodiy zonasining filiallari oçiladi. Ularning infratuzilmasi uçun dastlab 250 milliard söm yönaltiriladi. Zamonaviy traktor va qişloq xöjaligi texnikalarini mahalliylaştiriş, agrodronlar işlab çiqariş ham şu yönalişdagi vazifalardan böldi.

Sanoat ösişi barqaror energiya ta'minotiga ham boğliq. Kelasi yil viloyatda "Masdar" kompaniyasining 300 megavattli quyoş elektr stansiyasi va energiya saqlaş quvvati işga tuşiriladi. Qarşi tumanida çiqindidan elektr oliş loyihasi yakunlanmoqda. Yangi quvvatlarni iste'molçilarga yetkaziş uçun Nişon va Kökdalada yirik podstansiyalar quriş, Tolimarjon – Söğdiyona yönalişidagi 245 kilometrlik elektr tarmoğini tugallaş vazifalari qöyildi.

Qişloq xöjaligi ham aholi daromadini oşirişning muhim manbai sifatida körib çiqildi. Viloyatda uşbu sohaning özida qöşimça 200 ming kişini daromadli qiliş imkoniyati bor. Jahon banki bilan Misr tajribasi asosida sakkizta tumandagi 100 ming gektar yaylovga dronlar yordamida qurğoqçilikka çidamli çorva ozuqasi ekiladi, çorvaçilik komplekslari taşkil etiladi. Ğuzorda 10 ming gektar yer foydalanişga kiritilib, dehqonlarga beriladi. Kosmik ma'lumotlar asosida aniqlangan yana 30 ming gektar maydonni özlaştirişga misrlik mutaxassislar jalb qilinadi.

Yerdan samarali foydalaniş uçun suv ta'minoti ham yaxşilanadi. Qaşqadaryoda ekin maydonlariga suv yetkaziş qimmatga tuşayotgani sababli kelasi yil 265 kilometr kanal betonlaştiriladi, 20 ta nasos yangilanadi. Fermerlar bilan birga 75 ming gektarda suv tejovçi texnologiyalar joriy etiladi. Bu yil qurilgan kiçik suv hovuzlari tajribasi yana beşta tumanda kengaytiriladi.

Aholining toza içimlik suviga ehtiyoji alohida muhokama qilindi. Ajratilgan mablağlar hisobidan 747 kilometr suv va kanalizatsiya tarmoği hamda 43 ta inşoot qurilişi yakunlanib, 200 ming kişi toza suv bilan ta'minlanadi. Hisorak suv omboridan Qarşi şahri va atrofdagi tumanlarga tarmoq tortiş yana 350 ming aholiga xizmat qiladi. Tolimarjon – Muborak suv tizimini rekonstruksiya qiliş esa beşta tumandagi 700 ming kişining suv ta'minotini yaxşilaşga qaratilgan.

(Davomi 2-betda).

Özbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

ÖZBEKISTON PREZIDENTI YEVROOSIYO IQTISODIY KOMISSIYASI HAY'ATI RAISINI QABUL QILDI

Özbekiston Respublikasi Prezidenti Şavkat Mirziyoyev 22-oktyabr kuni Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi Hay'ati raisi Baqitjan Sağintayevni qabul qildi.

Muloqot çoğida Özbekistonning kuzatuvçi davlat sifatida Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan özaro manfaatli hamkorligi izçil kengayib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

YOII mamlakatlari bilan özaro savdo va investitsiyalar hajmi barqaror ösib bormoqda, logistika aloqalari mustahkamlanmoqda.

Mamlakatimiz ittifoqning savdo va yuk taşiş sohalarini raqamlaştiriş, elektron tijoratni rivojlantiriş, iqlim masalalari kabi asosiy sohaviy dasturlarida faol iştirok etmoqda.

Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi bilan qöşma işçi guruhning törtta yiğilişi ötkazildi. Texnik tartibga soliş tizimlarini özaro yaqinlaştiriş böyiça "Yöl xaritasi" tasdiqlandi.

Özbekiston Yevroosiyo taraqqiyot bankining tölaqonli a'zosiga aylanib, kooperatsiya loyihalari portfeli şakllantirildi.

Joriy yil yakuniga qadar işçi guruhning navbatdagi uçraşuvini ötkaziş yuzasidan kelişuvga erişildi. Savdo tösiqlarini qisqartiriş, kooperatsiyani çuqurlaştiriş, bojxona va transport tartib-taomillarini raqamlaştirişga qaratilgan yangi Hamkorlik rejasini qabul qiliş muhimligi ta'kidlandi.

HAMKORLIKNING USTUVOR YÖNALIŞLARI BELGILAB OLINDI

Özbekiston Respublikasi Prezidenti Şavkat Mirziyoyev mamlakatimizga amaliy taşrif bilan kelgan Yevropada xavfsizlik va hamkorlik taşkiloti Parlament Assambleyasi raisi Pere Joan Pons Sampyetroni qabul qildi.

Uçraşuvda YXHT va uning Parlament Assambleyasi bilan hamkorlikni, jumladan, parlamentlararo muloqotni yanada rivojlantiriş istiqbollari körib çiqildi.

Uşbu nufuzli tuzilma bilan aloqalarning ijobiy sur'ati mamnuniyat bilan qayd etildi. YXHT Parlament Assambleyasida Özbekistonning doimiy delegatsiyasi faoliyat yuritmoqda, Assambleya vakillari mamlakatimizdagi saylovlarni kuzatiş jarayonlarida muntazam iştirok etib kelmoqda.

Ekologiya, migratsiya va transport sohalarida konstruktiv muloqot yölga qöyilgan. Özbekiston vakili Assambleyaning Migratsiya böyiça maxsus qömitasi tarkibiga kiritilgan.

Xalqaro masalalar, jumladan, Markaziy Osiyoda mintaqaviy şeriklikni rivojlantiriş yuzasidan ham fikr almaşildi.

Amaliy hamkorlikni kengaytiriş maqsadida yangi ustuvor yönalişlarni belgilab beradigan qöşma "Yöl xaritasi"ni qabul qilişga kelişib olindi.

ÖzA.

Anjuman

SAMARQAND DEKLARATSIYASI – BOLALAR SAODATI YÖLIDAGI TARIXIY HUJJAT

Samarqand şahrida ötkazilgan "Bolalar farovonligiga investitsiya: kelajak avlodlarning barqaror va adolatli taraqqiyoti sari yöl" butunjahon sammiti xalqaro tajribani amaliy yeçimlar bilan boğlaş, bolalarga yönaltirilgan investitsiyalarning samaradorligini oşiriş va davlatlararo hamkorlikni mustahkamlaş yölida muhim qadam böldi.

Sammit doirasida taşkil etilgan "Soğayişdan farovonlik sari" mavzuida bolalar onkologiyasi böyiça II xalqaro kongress Özbekiston, Ozarbayjon, Qozoğiston, Qirğiziston, Tojikiston va Rossiyaning soğliqni saqlaş sohasi rahbarlari, Jahon soğliqni saqlaş taşkiloti, Xalqaro bolalar onkologlari jamiyati, Yevropa onkologiya maktabi vakillari, şuningdek, xorijiy universitetlar klinikalari va yetakçi tibbiyot markazlari, milliy ilmiy hamjamiyat hamda fuqarolik jamiyati vakillarini bir davrada jam qildi.

2

Uçraşuv

ÖZBEKISTON TAJRIBASI E'TIROFI

Inson huquqlarini himoya qiliş, munosib mehnatni ta'minlaş va mehnat migratsiyasini tartibga soliş masalalari dunyo davlatlari diqqat markazida turgan mavzulardan sanaladi.

Şu ma'noda, Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Yevropada xavfsizlik va hamkorlik taşkiloti Parlament Assambleyasi raisi Pere Joan Pons Sampyetro boşçiligidagi delegatsiya bilan uçraşdi.

Suhbat çoğida Pere Joan Pons Sampyetro Özbekistonda amalga oşirilayotgan keng kölamli islohotlar, Prezident Şavkat Mirziyoyevning Markaziy Osiyoda özaro işonç muhitini mustahkamlaş, savdo-iqtisodiy va transport aloqalarini rivojlantirişdagi muhim rolini e'tirof etdi.

Delegatsiya a'zolari Özbekistonning bolalar va majburiy mehnatga barham beriş, xorijda mehnat qilayotgan fuqarolar huquqlarini himoyalaş hamda odam savdosiga qarşi kuraşiş borasidagi tajribasini e'tirof etdi. Bu yönalişlarda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalaniş böyiça özaro hamkorlikni rivojlantirişga qiziqiş bildirildi.

Şuningdek, muloqot davomida migratsiya jarayonlarini tartibga soliş, fuqarolarning xorijda mehnat va ijtimoiy huquqlarini ta'minlaş, noqonuniy migratsiya va odam savdosiga qarşi kuraşiş hamda Orolböyi hududidagi ekologik vaziyat yuzasidan fikr almaşildi.

«Xalq sözi».

Özbekiston – YXHT:

PARLAMENTLARARO MUNOSABATLAR RIVOJLANMOQDA

Oliy Majlis Qonunçilik palatasi Spikeri Nuriddin Ismoilov Yevropada xavfsizlik va hamkorlik taşkiloti Parlament Assambleyasi raisi Pere Joan Pons Sampyetro boşçiligidagi delegatsiya bilan uçraşdi.

Uçraşuvda Özbekiston hamda Yevropada xavfsizlik va hamkorlik taşkiloti Parlament Assambleyasi (YXHT PA) örtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantiriş, inson huquqlarini himoya qiliş, munosib mehnat şaroitlarini ta'minlaş hamda mehnat migratsiyasini tartibga soliş masalalari muhokama etildi.

Qonunçilik palatasi Spikeri mehmonlarga Prezident Şavkat Mirziyoyev rahbarligida mamlakatimizda iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy sohalarda amalga oşirilayotgan keng kölamli islohotlar, ularning natijalari, şuningdek, Qonunçilik palatasining faoliyati haqida ma'lumot berdi.

Ta'kidlanganidek, sönggi ön yilda Özbekiston taşqi siyosatida muhim özgarişlar yuz berdi. 2016-yildan boşlab oçiqlik, pragmatizm, özaro manfaatli hamkorlik va yaxşi qöşniçilik tamoyillari taşqi siyosatning ustuvor yönalişlariga aylandi.

2

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq sözi
2026-yil 23-oktabr

BUNYODKORLIK RUHI QAŞQADARYONING YANGI QIYOFASINI YARATMOQDA

(Davomi. Boşlanişi 1-betda).

Hududlar örtasidagi aloqani yengillaştiriş uçun yöl loyihalari ham belgilandi. Osiyo taraqqiyot banki bilan "A-380" avtomobil yölining viloyatdan ötuvçi 100 kilometr qismi rekonstruksiya qilinadi. Qarşi şahri aylanma yöli uşbu magistralga ulanadi. Poyezd ötayotgan vaqtda tirbandlik yuzaga keladigan ikki temir yöl kesişmasida zamonaviy yölötkazgiçlar quriladi.

Yiğilişda yirik loyihalarning samarasi har bir mahallada sezilişi kerakligiga e'tibor qaratildi. Qamaşi tumanidagi Çim mahallasida maktab, boğça, poliklinika, yoşlar markazi, sport majmuasi va istirohat boği barpo etildi. Eng muhimi, mahallada kambağal oila va işsiz aholi qolmadi. Kelgusi yil Mustaqillik bayramigaça şu tajriba asosida har bir tumanda ikkitadan zamonaviy mahalla markazi taşkil etiladi. Mirişkorda limonçilik, baliqçilik va boğdorçilik loyihalari boşlanadi, ijaraga berilgan yerlarda yuqori daromadli ekinlar yetiştiriş kengaytiriladi.

Bunday taşabbuslarni amalga oşirişda banklar faqat yangi kredit mahsulotlarini taklif etiş bilan çeklanmasligi ta'kidlandi. Ularning işi resurs olgan korxonalar soni va biznesning ösişi bilan baholanadi. Kredit ajratişda pul oqimi va aniq buyurtmalarni hisobga oliş, tadbirkorlardan söraladigan ortiqça hujjatlarni bekor qiliş vazifasi qöyildi.

Qaşqadaryoning tabiiy imkoniyatlari turizmda ham yangi iş örinlari yaratişi mumkin. Yil boşidan viloyatga 2,5 million sayyoh kelgan, Ğelon qişloğining öziga taşrif buyurganlar soni 500 mingga yetgan. Ğelonda toğ-çanği kurortining birinçi bosqiçini işga tuşiriş, boşqa toğ qişloqlarida etnoturizm, Şahrisabz tumanida rafting va sport turizmini rivojlantiriş rejalaştirilgan. Olti qişloq böyiça master-rejalar tayyorlanib, 50 million dollarlik loyihalar boşlanadi.

Yangi iş örinlariga yoşlarning kasbiy tayyorgarligi ham muhim. Qarşi şahridagi Ilğor kasbiy mahorat texnikumining Germaniyada malaka oşirgan 32 nafar ustasi hozir viloyatdagi 57 ta texnikum ustalarini öqitmoqda. Bu yerda öquvçilar maktab attestati bilan birga kasbiy sertifikat oladi, germaniyalik mutaxassislar esa yoşlarga til va kasb örgatadi. Mas'ullarga maktablar bilan texnikumlar örtasida öquvçilarni kasbga yönaltirişning aniq tizimini yaratiş topşirildi.

Qaşqadaryolik öquvçilarning natijalari ham e'tirof etildi. Qarşi şahridagi Prezident maktabi "Cambridge" imtihonlarida respublikada eng yuqori natijani qayd etdi, Abdulla Oripov nomidagi ijod maktabi "Zakovat" turnirida ğolib böldi. Kosonlik Murodjon Xalimov SAT imtihonida maksimal 1600 ball töpladi. Kelasi yildan har bir tumanda bittadan maktabda aniq fanlar çet tilida öqitiladi. Şuningdek, barça tumanlarda robototexnika tögaraklari oçilib, öquvçilar örtasida har yili çempionat ötkaziladi.

Viloyatning kelgusi ösişi şaharsozlikda ham oldindan puxta rejalaştirişni talab etadi. Qarşi şahri, Kökdala va Qarşi tumani çegarasida 500 ming aholiga möljallangan Yangi Qarşi şahri, Qarşi tumanida esa "Köhna Nasaf" ekomajmuasi barpo etiladi. Nufuzli arxitektura kompaniyalari iştirokida boş reja işlab çiqilib, yangi hududlar "yaşil" va "aqlli" şahar tamoyillari asosida quriladi.

Şu bilan birga, mahallalarda köçat ekiş va yaşil hududlarni köpaytiriş böyiça Qaşqadaryo tajribasi yölga qöyiladi. Har yili Navröz arafasida "Eng yaşil mahalla" tanlovi ötkaziladi.

Yiğiliş yakunida viloyat va tumanlar hokimlarining axboroti tinglandi, faollar bilan muloqot qilindi.

Şundan söng Prezident Şavkat Mirziyoyev Yangi Qarşi şahrini barpo qiliş hamda Qarşi magistral kanali böyida turizm majmuasini taşkil etiş loyihalari bilan tanişdi.

Yangi şahar uçun Samarqand – Ğuzor yönalişidagi "A-378" hamda Şahrisabzga olib boruvçi "4R-79" avtomobil yöllari oraliğidagi 5200 gektar maydon tanlangan. Bu hudud past bonitetli, foydalanilmayotgan çöl va yaylov yerlaridan iborat. Dastlabki boş reja 500 ming aholiga möljallangan.

Davlatimiz rahbari şaharni istiqbolda 1 million aholi yaşaydigan, Qarşiga zamonaviy muqobil böladigan yirik markaz sifatida rejalaştiriş zarurligini ta'kidladi.

Yangi şaharga viloyat hokimligi va boşqa davlat idoralarini köçiriş közda tutilgan. Bu yerda kongress-xoll, konsert zallari va mehmonxonalar barpo etilib, Samarqand va Buxorodagi kabi yirik xalqaro forumlarni qabul qila oladigan turizm markazi şakllantiriladi.

Transport tarmoği şaharning boşqa hududlar bilan qulay boğlanişini ta'minlaşi kerak. Prezidentimiz aeroport va temir yöl vokzalini yangi şahar bilan tutaştiradigan elektr jamoat transporti, zarur bölsa, yer usti metro qatnovini yölga qöyiş kerakligini körsatib ötdi.

Taqdimotda Qarşi magistral kanali böyidagi turizm majmuasi loyihasi ham körib çiqildi. Uning doirasida uç kilometrlik sayilgoh taşkil etiş uçun 235 gektar yer ajratilgan. Loyiha tört bosqiçda amalga oşirilib, dastlab 30 gektarda hunarmandlar şaharçasi va turizm hududi barpo etiladi.

Majmuada mehmonxonalar, restoran va dökonlar, muzey, akvapark, bolalar öyin maydonçalari hamda qayiqlar suzişi uçun sun'iy köl qurilişi rejalaştirilgan.

Prezidentimiz yangi şahar va turizm majmuasining boş rejalarini nufuzli xorijiy loyihalaş va arxitektura kompaniyalarini jalb qilgan holda puxta işlab çiqiş, bunda xavfsizlik, qulaylik, hamyonboplik va "aqlli" şahar tamoyillariga tayanişga topşiriq berdi.

Söng Prezident Şavkat Mirziyoyev Qarşi davlat universitetida yaratilgan şaroitlar bilan tanişdi.

Universitetda 14 mingdan ortiq talabalar bakalavriat va magistratura bosqiçlarida, kunduzgi, sirtqi va masofaviy şakllarda tahsil olmoqda. Bu yerda 579 nafar professor-öqituvçi mehnat qiladi.

Ta'lim dasturlarini xalqaro talablarga moslaştirişga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ingliz filologiyasi, matematika, amaliy matematika va fizika yönalişlari xalqaro akkreditatsiyadan ötkazilgan. Rossiya va Belarus oliygohlari bilan 14 ta qöşma ta'lim dasturi yölga qöyilgan.

Tillar fakultetida ming örinli zamonaviy mediastudiya, şuningdek, xitoy, nemis, fransuz, ingliz va rus tillari markazlari taşkil etilgan. Xalqaro dasturlar doirasida sinxron tarjimonlar tayyorlanmoqda. Yettita laboratoriyani birlaştirgan Xalqaro laboratoriyalar markazida sun'iy intellekt, maşinali öqitiş va robototexnika yönalişlarida tadqiqotlar olib borilmoqda.

Ötgan yili muassasada keng kölamli quriliş va rekonstruksiya işlari amalga oşirildi.

Talabalarning yaşaş şaroitlari yaxşilandi. Uçta yangi yotoqxona qurilişi natijasida 1 300 dan ortiq qöşimça örinlar yaratilib, talabalar turarjoyiga bölgan ehtiyoj töliq qoplangan. Universitet hududida 240 örinli bolalar boğçasi, kutubxona, oşxonalar, yoşlar markazi va anjumanlar saroyi faoliyat yuritmoqda. Oliygoh qoşida "Loçin" futbol jamoasi taşkil etilib, uning maşğulotlari uçun zamonaviy maydon qurilgan.

Prezidentimiz universitetning talabalarga xizmat körsatiş markazi faoliyati bilan tanişdi.

Şu bilan Özbekiston Respublikasi Prezidenti Şavkat Mirziyoyevning Qaşqadaryo viloyatiga taşrifi yakunlandi.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
Abdulaziz RUSTAMOV,
Ölmas BAROTOV,
ÖzA maxsus muxbirlari.

SAMARQAND DEKLARATSIYASI – BOLALAR SAODATI YÖLIDAGI TARIXIY HUJJAT



1 Tadbirda AQŞning "St. Jude" bolalar ilmiy-tadqiqot şifoxonasi vitse-prezidenti, "St. Jude Global" direktori Karlos Rodriges-Galindo oğir xastalikka çalingan bolalarni qöllab-quvvatlaş böyiça Global tarmoq tuzilişini e'lon qildi. Bu tarmoq oğir va hayot uçun xavfli, jumladan, onkologik kasalliklarga çalingan bolalarni qöllab-quvvatlaş yölida xalqaro hamkorlik va tajriba almaşiş uçun mamlakatlar Birinçi xonimlarini birlaştiradi.

Özbekiston Respublikasining Birinçi xonimi Ziroat Mirziyoyeva ikki yil muddatga Global tarmoq raisi böldi. Uning raislikka kirişiş marosimi bolalar onkologiyasi böyiça xalqaro kongress doirasida ötkazildi. Bu qaror Özbekistonda bolalar onkologiyasi xizmatini rivojlantiriş borasida erişilgan yutuqlar, şuningdek, Ziroat Mirziyoyevaning saratonga çalingan bolalarni qöllab-quvvatlaş, ularning sifatli tibbiy yordamdan foydalanişini ta'minlaş hamda hayotiy holatlaridan qat'i nazar, har bir bolaning ösişi va rivojlanişi uçun şaroit yaratişdagi faol va yetakçi örnining e'tirofidir.

Kongress doirasida Jahon soğliqni saqlaş taşkiloti boş direktori Özbekiston Birinçi xonimi Ziroat Mirziyoyevaga onkologik kasalliklarga çalingan bolalarga tibbiy yordam körsatiş tizimini rivojlantirişdagi yetakçiligi va har bir bolaning soğlom hayot keçiriş huquqini global miqyosda ilgari surgani uçun nufuzli xalqaro mukofotni topşirdi.

– Muhtaram Birinçi xonim! Siz butun dunyoda bolalar, ayniqsa, onkologik kasalliklar bilan kuraşayotgan bolalar manfaatlari yölida çinakam kuraşçi, har bir bolaning ta'lim oliş va soğlom hayot keçiriş huquqining himoyaçisisiz, – dedi JSST boş direktori Tedros Adxanom Gebreyesus.

Mukofot 2019-yilda ta'sis etilgan. Avvalgi yillarda uşbu mukofotga davlatlar va xalqaro taşkilotlar rahbarlari, Nobel mukofoti sovrindorlari, taniqli olimlar va jamoat arboblari sazovor bölgan. Ular global emlaşni rivojlantiriş, yuqumli kasalliklarga qarşi kuraşiş, tibbiy yordamdan foydalaniş imkoniyatlarini kengaytiriş hamda soğliqni saqlaş böyiça xalqaro hamkorlikni mustahkamlaşga qöşgan hissasi uçun taqdirlangan.

Şuningdek, sammit doirasida xalqaro taşkilotlar rahbarlari, vazirlar va ekspertlar iştirokida yuqori darajadagi plenar sessiyalar, ikki tomonlama muloqotlar va muhokamalar ham bölib ötdi.

Plenar sessiyalarda Özbekiston, Qirğiziston, Ozarbayjon, Turkiya, Rossiya, Tojikiston va Belarus soğliqni saqlaş hamda ta'lim sohasi rahbarlari, YUNISEF, Jahon soğliqni saqlaş taşkiloti, Jahon banki va boşqa xalqaro taşkilotlar vakillari bolalar salomatligini muhofaza qiliş, sifatli tibbiy xizmatlardan teng foydalaniş imkoniyatlarini ta'minlaş, soğliqni saqlaş tizimlarining barqarorligini oşiriş, maktabgaça ta'lim imkoniyatlarini kengaytiriş kabi masalalarni atrofliça muhokama etişdi.

Sammit yakunida bolalarni qöllab-quvvatlaydigan ta'lim, soğliqni saqlaş va ijtimoiy himoya tizimlariga sarmoya kiritiş muhimligini mustahkamlovçi hujjat – Samarqand deklaratsiyasi qabul qilindi.

Söz – tadbir iştirokçilariga

Naji BENHASSIN,
Jahon bankining Markaziy Osiyo böyiça mintaqaviy direktori:

– Köplab tadqiqotlar şuni körsatdiki, ösib kelayotgan avlod farovonligiga sarmoya kiritiş insoniyat taraqqiyoti uçun muhim rol öynaydi. Samarqanddagi uçraşuv uşbu masalalarga global miqyosda e'tibor qaratiş va sammit maqsadlariga mos keladigan loyihalarni moliyalaştirişni köpaytiriş böyiça yangi majburiyatlarni oliş imkonini beradi.

Jahon banki Özbekistonda amalga oşirilayotgan bir qator dasturlarda iştirok etmoqda. Masalan, biz muhtoj bolalar va oilalarni qöllab-quvvatlaşga qaratilgan "Inson" loyihasida hamkorlik qilamiz.

Özbekistonda ösib kelayotgan avlodni uyğun rivojlantiriş masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Bolalarni sifatli ta'lim, ijtimoiy xizmatlar bilan ta'minlaş dolzarbligi töğrisida yuqori darajada söz bormoqda. Kelgusida ham uşbu maqsadlarni röyobga çiqarişda Özbekistonga moliyaviy va ekspertlik yordami körsatişda faol iştirok etiş niyatidamiz.

Regina Mariya KASTILO,
YUNISEFning Özbekistondagi vakili:

– Xalqaro mojarolar, iqtisodiy töqnaşuvlar, iqlim muammolari ösib kelayotgan avlodga ham misli körilmagan bosim ötkazmoqda. Bunday şaroitda köplab davlatlar ijtimoiy xarajatlarni qisqartirişga majbur bölmoqda. Bolalarning manfaatlarini ta'minlaş, ularning barkamol rivojlanişi uçun şaroitlar yaratiş uçun sarmoya kiritiş masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Şu nuqtai nazardan, Samarqandda bolalar farovonligini ta'minlaş böyiça bölib ötgan sammit dunyo hamjamiyati uçun juda muhim.

Anjuman doirasida har qanday mamlakat va umuman, sivilizatsiyaning barqaror ravnaqi kafolati bölgan inson kapitalini rivojlantiriş böyiça samarali muhokamalar bölib ötdi. Özbekistonda ösib kelayotgan avlodni ilğor tibbiy xizmat, inklyuziv ta'lim, sifatli ovqatlaniş kabi yönalişlarda manzilli qöllab-quvvatlaş ustuvor ijtimoiy vazifalar etib belgilandi. Biz bu boradagi barça sa'y-harakatlarni har tomonlama qöllab-quvvatlaymiz.

Gabriyel AKIMOVA,
YUNISEFning mintaqaviy vakili:

– Bugun bolalar uçun yönaltirilgan mablağlar istiqbolli kelajagimizga xizmat qiladi. Samarqand deklaratsiyasi aynan şu zaruratni – bolalarni qöllab-quvvatlaydigan ta'lim, soğliqni saqlaş va ijtimoiy himoya tizimlariga sarmoya kiritiş muhimligini mustahkamlovçi hujjat böldi.

Özbekistondagi özgarişlarni raqamlarning özi körsatib turibdi. Kambağallikning qisqarişi, ehtiyojlarga javob beriş imkoniyatlarining kengayişi, ijtimoiy iş tizimining rivojlanişi – bularning barçasi bolalar hayotida haqiqiy özgarişlarga xizmat qilyapti. Eng muhimi ham şu. Bularni körib, Özbekiston yetakçisi, haqiqatan ham, töğri yölni tanlaganiga guvoh bölyapmiz. Mamlakatingizning bu tajribasini boşqa davlatlar bilan bölişiş, ayni paytda ularning muvaffaqiyatli tajribalarini örganiş orqali birgalikda bolalar uçun yanada xavfsiz dunyo yaratişimiz mumkin.

Sara El-XAYRI,
Fransiyaning bolalar böyiça Oliy komissari:

– Prezidentingizning tabrigi va sammitning yuqori darajada taşkil etilişi Özbekistonda bolalar huquqlarini himoya qiliş, ularning xavfsizligi va farovonligini ta'minlaş, yoşlarning jamiyat hayotidagi faolligini oşirişga alohida e'tibor qaratilayotganidan dalolatdir.

Bugungi kun bolalari jiddiy muammolarga duç kelmoqda. Ta'limni rivojlantiriş, salomatlik va madaniyatni saqlaş, bolalarning öz kelajagiga işonişi uçun şaroit yaratiş biz uçun muhim. Muhokama etilgan masalalar esa butun dunyo uçun dolzarb. Raqamli muhitdagi yangi tahdidlar, jumladan, ijtimoiy tarmoqlar va sun'iy intellekt bilan boğliq xavflar birgalikda harakat qilişni talab etadi.

Abdulaziz YÖLDOŞEV
(«Xalq sözi»).

Özbekiston – YXHT: PARLAMENTLARARO MUNOSABATLAR RIVOJLANMOQDA

1 Bu esa xorijiy davlatlar va xalqaro taşkilotlar bilan siyosiy muloqotning faollaşişi, yuqori darajadagi taşriflar hamda muntazam muzokaralar kölamining kengayişiga xizmat qildi. Şuningdek, Özbekistonning xalqaro parlamentlararo tuzilmalar, jumladan, YXHT Parlament Assambleyasi va Parlamentlararo Ittifoq doirasidagi faol iştiroki qayta tiklanib, izçil rivojlanib bormoqda.

Pere Joan Pons Sampyetro samimiy qabul uçun minnatdorlik bildirib, oxirgi ön yilda Özbekistonda barça sohalarda amalga oşirilayotgan keng kölamli islohotlarni yuqori baholadi. Ayniqsa, Prezident Şavkat Mirziyoyevning Markaziy Osiyoda özaro işonç va yaxşi qöşniçilik muhitini mustahkamlaş, savdo-iqtisodiy hamda transport aloqalarini rivojlantiriş borasidagi sa'y-harakatlarini alohida e'tirof etdi.

– Keyingi yillarda Özbekiston jadal ravişda rivojlanib bormoqda. Mamlakatning barça sohalardagi izçil islohotlari va xalqaro hamkorlikni kengaytiriş borasidagi sa'y-harakatlari e'tiborga molik. Ayniqsa, Markaziy Osiyo davlatlari va Yevropa mamlakatlari bilan özaro manfaatli aloqalarni mustahkamlaş, mintaqada işonç hamda barqarorlikni ta'minlaşga qaratilgan siyosati yuksak e'tirofga loyiqdir, – dedi YXHT Parlament Assambleyasi raisi.

Tomonlar sönggi yillarda Özbekiston Oliy Majlisi va YXHT Parlament Assambleyasi örtasidagi hamkorlik izçil rivojlanib, muntazamlik kasb etayotganini ta'kidladi. Bunday muloqotlar parlamentlararo aloqalarni yanada mustahkamlaş, qonun ijodkorligi böyiça tajriba almaşiş va özaro hamkorlikni yangi bosqiçga olib çiqişda muhim ahamiyat kasb etayotgani urğulandi.

Uçraşuv oçiq va döstona ruhda ötdi.

«Xalq sözi».

Sayyor yiğiliş

KUN TARTIBIDA – ŞAXSGA DOIR MA'LUMOTLAR MUHOFAZASI

Keça Toşkent şahrida Mustaqil Davlatlar Hamdöstligi Parlamentlararo Assambleyasi Madaniyat, axborot, turizm va sport böyiça doimiy komissiyasining sayyor majlisi bölib ötdi.

Unda Ozarbayjon, Armaniston, Belarus, Qozoğiston, Qirğiziston, Tojikiston va Özbekiston Respublikalari hamda Rossiya Federatsiyasi parlamentlari a'zolari iştirok etdi.

Oliy Majlis Senati Raisining birinçi örinbosari Sodiq Safoyev majlisni oçar ekan, mazkur tadbir Özbekiston uçun MDH mamlakatlari örtasidagi parlamentlararo muloqotni mustahkamlaş, gumanitar aloqalarni kengaytiriş va amaliy hamkorlikni rivojlantirişda muhim ahamiyat kasb etişini ta'kidladi.

Tadbir davomida kun tartibidagi keng kölamli masalalar körib çiqildi. Jumladan, arxiv işi, şaxsga doir ma'lumotlarni himoya qiliş, adaptiv jismoniy tarbiya, talabalar va professional sport, ijodiy uyuşmalar faoliyati sohalarida namunaviy qonun hujjatlarini işlab çiqiş va takomillaştirişga alohida e'tibor qaratildi.

Bundan taşqari, tarixiy xotirani saqlaş va turizm sohasida favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda MDHga a'zo davlatlarning özaro hamkorligi böyiça milliy qonunçilikni takomillaştiriş yuzasidan tavsiyalar tayyorlaş masalasi muhokama qilindi.

Sözga çiqqanlar madaniyat, axborot, turizm va sport sohalari MDH xalqlarini yaqinlaştiriş, umumiy tarixiy-madaniy merosni asrab-avaylaş, özaro anglaşuvni mustahkamlaş hamda yoş avlodni döstlik va hurmat ruhida tarbiyalaşda alohida örin tutişini ta'kidladi.

Uşbu yönalişlarda parlamentlar örtasidagi hamkorlikni yanada kengaytiriş, yoşlar, ta'lim va madaniy almaşinuvlarni rivojlantiriş, barqaror turizmni qöllab-quvvatlaş hamda sportni ommalaştiriş muhimligi qayd etildi.

Majlisda doimiy komissiyaning vakolatiga doir boşqa masalalar ham muhokama qilindi.

«Xalq sözi».

4,6 MILLION TONNALIK PAXTA XIRMONI YARATILDI

Mamlakatimiz paxtakorlari, fermer va klasterlar tomonidan bugungi kunga qadar 4 million 630 ming tonna paxta hosili yiğib-terib olinib, şartnomaviy reja ortiği bilan bajarildi.

Xuşxabar

Soha mutaxassislarining aytişiça, oktyabr oyining ikkinçi yarmida bunday marra zabt etilgani özbek paxtaçiligida yangi bosqiçga ötilganidan dalolat beradi.

Bu muvaffaqiyat zamirida minglab dehqon va mexanizatorlarning maşaqqatli mehnati, fermer va klasterlarning sa'y-harakatlari, yurt farovonligi yölida qilinayotgan fidokorona işlar mujassam.

Qişloq xöjaligi vazirligidan ma'lum qilinişiça, hosilning 3 515 597 tonnasi 3 mingga yaqin zamonaviy paxta teriş maşinalari yordamida terib olindi. Bu paxtaçilikda mexanizatsiyalaştiriş darajasi viloyatlar kesimida 61 foizdan 98,5 foizgaça, mamlakat böyiça örtaça 76 foizga yetkazilgani samarasidir.

Darhaqiqat, bunday natijaga özözidan erişilgani yöq. Prezidentimiz tomonidan qişloq xöjaligini rivojlantiriş, sohaga zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etiş va ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalaniş böyiça belgilab berilgan ustuvor vazifalar amaliyotda öz ifodasini topayotganini sohadagi muvaffaqiyatlarning boş omili bölmoqda. Şuningdek, paxtaçilik sohasi olimlarining tinimsiz izlanişlari, ilmiy tavsiyalar va ilğor tajribalarning işlab çiqarişga joriy etilişi bu yilgi mavsum muvaffaqiyatida muhim örin tutdi.

Zamonaviy agrotexnologiyalar, ilğor texnikalar va ilm-fan yutuqlarining uyğunligi paxtaçilikda yangi imkoniyatlarni oçmoqda. Bu haqda gap ketganda, Şinjon usulida paxta yetiştiriş tajribasi samaralarini alohida qayd etiş joiz. Negaki, uşbu texnologiyada çigit plyonka ostiga qöş qatorlab ekilib, tomçilatib



suğoriş töliq joriy qilinadi. Plyonka tuproqdagi namlik va haroratni saqlab, çigitning erta hamda bir tekis unib çiqişiga yordam beradi. Suv va öğit esa tomçilatib suğoriş tizimi orqali bevosita ğöza ildiziga yetkaziladi. Natijada suv sarfi 30 – 40 foizga, öğit sarfi qariyb 30 foizga kamayadi. Hosil an'anaviy maydonlardagiga nisbatan 10 – 15 kun oldin pişib yetiladi. Yana bir afzalligi şundaki, an'anaviy usulda gektaridan 30 – 35 sentner paxta olinsa, Şinjon texnologiyasida bu körsatkiç 60 – 70 sentnergaça yetadi.

Şartnoma rejasi bajarilgan bölsada, ayni kunlarda mamlakatimiz paxta dalalarida yiğim-terim davom etmoqda. Sababi, hali hosil möl. Jumladan, 49 ming gektardan ziyod maydonlarda birinçi terim hosilini nest-nobud qilmay yiğib-terib olişga alohida e'tibor qaratilmoqda.

«Xalq sözi».

Norvegiyada taşkil etilgan «Norvegiya – Qora dengiz mintaqasi» nomli biznes-forumda Özbekistonning investitsiyaviy imkoniyatlari taqdim qilindi.

XORIJIY ŞERIKLAR MUNOSIB TAQDIRLANADI



Mamlakatimizning oçiq va pragmatik taşqi siyosati natijasida xorijiy davlatlar va xalqaro taşkilotlar bilan siyosiy, parlamentlararo, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy hamda madaniy-gumanitar aloqalar faol rivojlanmoqda. Bu jarayonda Özbekiston bilan döstona munosabatlarni mustahkamlaş, mamlakatimizning xalqaro nufuzini oşiriş va hamkorlikni kengaytirişga munosib hissa qöşayotgan xorijiy şeriklarning xizmatlarini e'tirof etiş muhim hisoblanadi.

Senat qömitasida

Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, taşqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qömitasi majlisida xorijiy davlat arboblari, siyosatçilar, faol fuqarolarni taqdirlaşga möljallangan ikki darajali davlat mukofoti – "Oliy darajali Özbekiston ehtiromi" va "Özbekiston ehtiromi" ordenlarini ta'sis etiş masalasi muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, uşbu davlat mukofotlari Özbekistonning xalqaro manfaatlarini ilgari suriş, mamlakatlararo strategik hamkorlikni mustahkamlaş, savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantiriş, şuningdek, xalqlar örtasidagi döstlik riştalarini mustahkamlaşga salmoqli hissa qöşgan xorijiy davlat va jamoat arboblari hamda çet el fuqarolarining xizmatlarini e'tirof etişni nazarda tutadi.

Muhokama yakunida qömitaning tegişli qarori qabul qilindi.

«Xalq sözi».

ÖQUVÇILAR SALOMATLIGI – SIFATLI TA'LIM KAFOLATI

Özbekiston Respublikasi Ta'lim va ilm-fan vazirligiga umumiy örta ta'lim maktablarida tibbiy xonalarni taşkil qiliş, ularni zarur buyum va dori vositalari bilan jihozlaş vazifasi yuklatilgan bölsa, Soğliqni saqlaş vazirligi zimmasida maktablarni şifokor va tibbiy xodimlar bilan ta'minlaş mas'uliyati bor.

Örganiş

Ana şu vazifalarning ijrosi joylarda qanday amalga oşirilayotganligini örganiş maqsadida Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va soğliqni saqlaş masalalari qömitasi a'zosi Gulnora Ma'rufova boşçiligidagi işçi guruh Andijon viloyatida davlat umumta'lim maktablarida öquvçilarning soğligini muhofaza qiliş va ularga birlamçi tibbiy-sanitariya yordamini körsatiş holati bilan qiziqdi.

Işçi guruh Andijon şahri, Asaka, Andijon, Marhamat va Oltinköl tumanlaridagi maktablarda ta'lim-tarbiya va tibbiy xizmatni taşkil qiliş bilan boğliq masalalar bilan tanişdi. Xususan, davlat umumta'lim maktablarida sanitariya qoidalari, me'yorlari va gigiyenik normativlarga asosan tibbiy xonalar taşkil etilgani hamda ularning belgilangan talablarga muvofiq tibbiy jihoz va dori vositalari bilan ta'minlangani e'tibor markazida böldi. Tuman (şahar) maktabgaça va maktab ta'limi bölimlari bilan tuman (şahar) tibbiyot birlaşmasi tomonidan tasdiqlangan rejaga asosan öquvçilarni yilda bir marotaba çuqurlaştirilgan tibbiy körikdan ötkaziş holatlari örganildi.

Tahlillar davomida bajarilgan işlarga qaramasdan sohada hamon öz yeçimini topmagan qator muammolar borligi aniqlandi. Masalan, ayrim davlat umumta'lim maktablarida profilaktika va davolaş-soğlomlaştiriş tadbirlari töliq taşkil etilmagan. Ba'zi maktablarning tibbiyot xonalari esa zamonaviy antropometrik asboblar, muzlatkiç va sterilizatorlar bilan jihozlanmagani, şuningdek, birinçi tibbiy yordam uçun zarur bölgan dori vositalari bilan töliq ta'minlanmagani kuzatildi.

Işçi guruh öquvçilarning soğligini muhofaza qiliş va ularga birlamçi tibbiy-sanitariya yordamini körsatişni tizimli yölga qöyiş, çuqurlaştirilgan tibbiy köriklarni öz vaqtida va sifatli ötkaziş yuzasidan tavsiyalar berdi.

Örganiş yakunlari qömita majlisida muhokamadan ötkazilib, tegişli qaror qabul qiliş rejalaştirilgan.

YETAKÇI AYOLLAR YANADA FAOL

20-21-oktyabr kunlari Markaziy Osiyo mamlakatlari va Ozarbayjon yetakçi ayollari muloqoti doirasida Oliy Majlis Senatida "Markaziy Osiyo mamlakatlari va Ozarbayjonda ayollar tadbirkorligi: iqtisodiy integratsiya, yangi imkoniyatlar va barqaror mintaqaviy hamkorlik" mavzuida onlayn biznes-forum ötkazildi.

Forum

Mintaqa davlatlarining parlamentlari, savdo-sanoat palatalari, biznes uyuşmalari, moliya institutlari hamda tadbirkorlik tuzilmalari vakillari qatnaşgan uşbu forumda ayollar tadbirkorligini qöllab-quvvatlaş, moliyaviy resurslardan foydalaniş va yangi bozorlarga çiqiş, qöşma loyihalar, işlab çiqariş va savdo kooperatsiyasi hamda uzoq muddatli iqtisodiy şeriklikni rivojlantiriş yuzasidan fikr almaşildi.

Biznesning turli bosqiçlariga mos moliyaviy vositalarni, jumladan, boşlanğiç sarmoya, aylanma mablağ, kafolat mexanizmlari va eksportni moliyalaştiriş imkoniyatlarini kengaytiriş zarurligi qayd etildi.

Yakunda tadbirkor ayollar örtasida 9 ta memorandum, 2 ta kelişuv va 7 ta şartnoma tuzişga kelişib olindi. Mazkur hujjatlarni Markaziy Osiyo mamlakatlari va Ozarbayjon yetakçi ayollari muloqoti doirasida joriy yil dekabr oyida ötkaziladigan tadbirda imzolaş rejalaştirilgan.

Biz va jahon

SIYOSIY MULOQOT IZÇIL DAVOM ETTIRILADI

Keça Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, taşqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qömitasi raisi, "Özbekiston – Bolgariya" parlamentlararo hamkorlik guruhi hamraisi Alişer A'zamxöjayev Bolgariya Respublikasi taşqi işlar vaziri örinbosari Ivanka Taşeva bilan uçraşdi.

Suhbat çoğida Özbekiston va Bolgariya örtasidagi parlamentlararo muloqotni rivojlantiriş hamda ikki mamlakatning amaliy şerikligini kengaytiriş masalalari muhokama qilindi.

Uçraşuvda ikki davlat örtasidagi siyosiy muloqotni izçil davom ettiriş, savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytiriş, özaro investitsiyalarni rağbatlantiriş, sanoat kooperatsiyasini yölga qöyiş, qişloq xöjaligi, transport-logistika, turizm, ta'lim va ilm-fan sohalarida qöşma loyihalarni amalga oşiriş imkoniyatlari yuzasidan ham fikr almaşildi.

MADANIY-GUMANITAR ALOQALAR ISTIQBOLLARI

Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va soğliqni saqlaş masalalari qömitasi raisi, "Özbekiston – Xorvatiya" hamkorlik böyiça parlamentlararo guruh rahbari Odiljon Mamatkarimov Xorvatiya Respublikasining Özbekistondagi Favqulodda va muxtor elçisi Refik Şabanoviç bilan uçraşdi.

Suhbat çoğida Özbekiston va Xorvatiya örtasidagi munosabatlarni rivojlantiriş, parlamentlararo aloqalarni mustahkamlaş, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va madaniy-gumanitar hamkorlikni kengaytiriş istiqbollari muhokama qilindi.

Ikki mamlakat parlamentlari örtasida muloqotni faollaştiriş, qonunçilik va parlament nazorati böyiça tajriba almaşiş muhimligi qayd etildi.

Şuningdek, farmatsevtika, elektrotexnika, qişloq xöjaligi mahsulotlarini qayta işlaş va turizm yönalişlarida qöşma loyihalarni amalga oşiriş imkoniyatlari haqida fikr almaşildi.

«Xalq sözi».

Parlament diplomatiyasi

MEHNAT MIGRATSIYASI BÖYIÇA DOLZARB MASALALAR MUHOKAMASI



Oliy Majlis Qonunçilik palatasida Yevropada xavfsizlik va hamkorlik taşkiloti Parlament Assambleyasi (YXHT PA) delegatsiyasi a'zolari iştirokida davra suhbati bölib ötdi. Unda YXHT PAning Özbekistondagi doimiy delegatsiyasi a'zolari, deputatlar, senatorlar, Taşqi işlar va Içki işlar vazirliklari, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Bolalar ombudsmani hamda Inson huquqlari böyiça Özbekiston Respublikasi Milliy markazi vakillari qatnaşdi.

Muloqot avvalida YXHT Parlament Assambleyasining Migratsiya masalalari böyiça maxsus qömitasi raisi Farah Karimi Özbekistonda mehnat migratsiyasi yönalişida amalga oşirilayotgan islohotlar hamda mamlakat fuqarolariga xorijda munosib mehnat şaroitlarini ta'minlaş borasidagi sa'y-harakatlarga yuqori baho berdi.

Tadbirda ta'kidlanganidek, sönggi yillarda mamlakatimizda mehnat migratsiyasini huquqiy jihatdan tartibga soliş, davlat organlarining bu boradagi vazifalarini belgilaş va xorijda işlayotgan fuqarolarni qöllab-quvvatlaşga qaratilgan tizimli çora-tadbirlar amalga oşirilmoqda. Jumladan, "Xususiy bandlik agentliklari töğrisida"gi va "Aholi bandligi töğrisida"gi qonunlar taşqi mehnat migratsiyasining huquqiy asoslarini şakllantirişda muhim örin tutmoqda.

Şu bilan birga, sohada yagona vertikal boşqaruv tizimini joriy qiliş hamda mas'ul davlat idoralarining aniq vazifalari va javobgarligini belgilaş maqsadida Vazirlar Mahkamasi huzurida Migratsiya agentligi taşkil etildi. Islohotlar doirasida mehnat migratsiyasi geografiyasi diversifikatsiya qilinib, an'anaviy bozorlardan taşqari Yevropa Ittifoqi davlatlari, Buyuk Britaniya va AQŞ kabi rivojlangan mamlakatlar bilan yuqori maoşli iş örinlariga kadrlar tayyorlaş böyiça kelişuvlar tuzilmoqda.

Şuningdek, xususiy bandlik agentliklari uçun litsenziya talablari yengillaştirilib, xorijga çiquvçilarga til örganiş, kasbga tayyorlaniş va dastlabki xarajatlar uçun 10 million sömgaça mikrokreditlar beriş tizimi yölga qöyilgani ta'kidlandi. Xorijiy iş beruvçilar taklif etgan iş örinlarini oçiq e'lon qiliş, fuqarolar uçun bepul rezyume yaratiş va tanlovlarda erkin qatnaşiş imkoniyatini beruvçi "Xorijda iş" rasmiy sayti işlab turibdi.

Xorijiy hamkorlar bilan olib borilayotgan işlar natijasida joriy yilning töqqiz oyida 34 ta davlatda örtaça oylik iş haqi 1,5 ming AQŞ dollari va undan yuqori bölgan 287 mingdan ortiq iş örinlari aniqlangani aytildi. Şuningdek, Germaniya, Buyuk Britaniya, Italiya, Fransiya, Şvetsiya va Yevropaning boşqa davlatlari bilan hamkorlikning kengayişi fuqarolarni munosib iş örinlariga joylaştiriş uçun yangi imkoniyatlar yaratayotgani bayon etildi.

Davra suhbatida mehnat migratsiyasi böyiça milliy tajriba almaşiş, xorijda mehnat qilayotgan fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini işonçli himoyalaş, milliy qonunçilikni xalqaro standartlarga muvofiq rivojlantiriş hamda bu borada parlamentlararo va xalqaro hamkorlikni kengaytiriş masalalari yuzasidan fikr almaşildi.

Tadbir iştirokçilari muhokama qilingan masalalar yuzasidan öz fikr va mulohazalarini bildirdi.

Kemal ÇYELIK,
YXHT Parlament Assambleyasi Migratsiya masalalari böyiça maxsus qömita raisi örinbosari:



– Özbekistonning mehnat migratsiyasini tartibli taşkil etiş, fuqarolarni xorijiy mehnat bozori talablariga mos tayyorlaş borasida amalga oşirilayotgan işlari alohida e'tirofga loyiq. Bu borada şakllangan tajriba va yölga qöyilayotgan tizimli yondaşuv xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantiriş uçun muhim asos bölib xizmat qiladi. Ayniqsa, parlamentlar örtasidagi hamkorlikni mustahkamlaş orqali qonunçilik tajribasini örganiş va mehnat muhojirlari huquqlarini himoya qilişga qaratilgan samarali mexanizmlarni ilgari surişda bu kabi uçraşuvlarning ahamiyati katta.

Uluğbek ŞERMATOV,
Oliy Majlis Qonunçilik palatasining Xalqaro işlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qömitasi raisi, YXHT PA Migratsiya masalalari böyiça maxsus qömita a'zosi:



– Özbekiston va YXHT Parlament Assambleyasi örtasidagi parlamentlararo muloqot mamlakatimizda amalga oşirilayotgan islohotlarni xalqaro hamjamiyatga yetkaziş, özaro işonçni mustahkamlaşda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, qonun ijodkorligi, inson huquqlarini himoya qiliş va mehnat migratsiyasini tartibga soliş böyiça tajriba almaşiş hamda amaliy taşabbuslarni ilgari suriş uçun uşbu muloqot muhim maydon hisoblanadi. Biz YXHT Parlament Assambleyasi bilan hamkorlikni yanada rivojlantiriş orqali fuqarolarimiz manfaatlarini xalqaro miqyosda muhofaza etiş va parlament diplomatiyasining amaliy natijadorligini oşirişga intilamiz.

Şahnoza JOLDASOVA,
Oliy Majlis Qonunçilik palatasi deputati, YXHT PAning Özbekistondagi doimiy delegatsiyasi a'zosi:



– Bugungi murakkab geosiyosiy şaroitda parlament diplomatiyasi davlatlar örtasida işonçli aloqalarni mustahkamlaş va umumiy muammolarga birgalikda yeçim topişda muhim örin tutadi. Özbekiston va YXHT Parlament Assambleyasi örtasidagi hamkorlik milliy manfaatlarni xalqaro maydonda samarali ilgari surişda muhim imkoniyat yaratadi. Ayniqsa, mehnat migratsiyasi sohasida parlamentlararo hamkorlikni kuçaytiriş, muhojirlarning huquq va manfaatlarini himoya qiliş hamda milliy qonunçilikni xalqaro standartlarga muvofiq rivojlantiriş va uşbu platforma imkoniyatlaridan foydalaniş muhim ahamiyatga ega.

«Xalq sözi».

INSON QADRI, FAROVON HAYOT VA IMKONIYATLAR MEZONI

Qaşqadaryo – mamlakatimizning sanoat, energetika va qişloq xöjaligi salohiyati yuksak bölgan yirik hududlaridan biri. Tabiiy boyliklari, mehnatsevar aholisi, işlab çiqariş imkoniyatlari va tadbirkorlik an'analari viloyatning barqaror taraqqiyoti uçun mustahkam zamin yaratadi.

Aks sado

Prezidentimiz Şavkat Mirziyoyevning viloyatga taşrifi hududning iqtisodiy salohiyatini yanada yuksaltiriş, aholi bandligi va daromadlarini oşiriş, mahallalardagi dolzarb masalalarni hal etiş hamda yangi rivojlaniş bosqiçini boşlaş nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega böldi.

Şu örinda aytiş joiz, Qaşqadaryo qişloq xöjaligida ulkan imkoniyatlarga ega. Ammo yetiştirilgan mahsulotni faqat xomaşyo sifatida sotiş orqali yuqori daromadga erişiş qiyin. Şu bois davlatimiz rahbarining mahsulotlarni viloyatning özida çuqur qayta işlaş va aholi uçun munosib daromad manbalarini yaratişga qaratilgan vazifalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Taşrif davomida AQŞlik hamkorlar iştirokidagi "Wosune Food Ingredients Karşi" korxonasi 3,5 ming gektar maydonda yetiştiriladigan 100 ming tonna meva-sabzavotni qayta işlaşga möljallangani ma'lum qilindi. Korxona mahsulotlarining 40 mln. dollarlik qismini xalqaro bozorlarga yetkazib beriş rejalaştirilgan.

Şuningdek, Nişon va Ğuzor tumanlarida kartoşkaçilik hamda çorvaçilik loyihalarini amalga oşiriş uçun 24 ming gektar yer maydonini özlaştiriş işlari boşlanmoqda. Ayni jarayonda suv resurslaridan oqilona foydalaniş, tuproq unumdorligini saqlaş va zamonaviy agrotexnologiyalarni qöllaş ham ustuvor ahamiyat kasb etadi. Eng muhimi, qayta işlaş korxonalari mahalliy fermerlar bilan barqaror kooperatsiya asosida işlaşi, mahsulotni kafolatli xarid qiliş mexanizmlari rivojlanişi lozim. Zero, qişloq xöjaligidagi ösiş dehqon va fermerning daromadi oşganida, uning mehnati munosib qadrlanganida haqiqiy samara beradi.



Viloyat iqtisodiyotining jadal rivojlanişi suv, energiya va yer resurslariga bölgan talabni ham kengaytiradi. Şu bois Prezidentimiz taşrif davomida "yaşil" iqtisodiyot viloyat taraqqiyoti uçun mustahkam poydevor bölişini ta'kidladi.

Oqsuv daryosida umumiy quvvati 24 megavatt bölgan uçta gidroelektr stansiyasining işga tuşirilişi, Qarşi tumanida çiqindilardan elektr energiyasi işlab çiqaradigan 150 mln. dollarlik zavodni yil yakuniga qadar işga tuşiriş rejasi, şuningdek, Kitob, Yakkaboğ va Şahrisabz tumanlarida umumiy quvvati 58 megavatt bölgan töqqizta mikroGES barpo etiş taşabbuslari qayta tiklanuvçi energiya manbalaridan foydalanişni kengaytirişga qaratilgani bilan e'tiborga molik.

Ayniqsa, çiqindilarni iqtisodiy resursga aylantirişga qaratilgan loyihalarning ahamiyati katta. Bunday taşabbuslar ekologik xavfsizlik talablariga qat'iy rioya qiliş, havoga çiqariladigan moddalarning nazoratini yuritiş, çiqindilarni saralaş va qayta işlaş tizimini takomillaştiriş bilan birga amalga oşirilişi zarur. Zero, "yaşil" iqtisodiyot faqat muqobil energiya işlab çiqariş emas. U suvni tejaş, tabiiy resurslarni asraş, havo sifatini yaxşilaş va inson salomatligini muhofaza etişni ham qamrab oladi.

Ma'lumki, har qanday iqtisodiy islohotning samarasi, eng avvalo, odamlar hayotida namoyon böladi. Aholi uçun iş örni, barqaror daromad, sifatli ta'lim va tibbiy xizmat, içimlik suvi, elektr energiyasi hamda obod yöllar masalasi bevosita mahalla darajasida hal qilinadi.

Bu jarayonda mahalliy hokimliklar bilan bir qatorda, vakillik organlari va jamoatçilik nazoratining örni ham katta. Yönaltirilayotgan mablağlarning maqsadli sarflanişi, loyihalarning öz vaqtida işga tuşirilişi, yangi iş örinlarining amalda yaratilişi va ekologik talablarga rioya etilişi muntazam örganib borilişi kerak. Çunki har qanday dasturning muvaffaqiyati nafaqat belgilangan rejalarga, balki ularning ijrosi va natijadorligiga ham boğliq.

Taşrif doirasida Prezidentimiz iştirokida ötkazilgan Qaşqadaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirişga bağişlangan yiğilişda hududning iqtisodiy imkoniyatlari röyobini köriş, yangi işlab çiqariş quvvatlarini taşkil etiş va aholi farovonligini oşiriş böyiça muhim vazifalar belgilab berildi.

Ayniqsa, turizm yönalişlarini kengaytiriş uçun barça imkoniyat borligi, xususan, Tatariston bilan hamkorlikda Ğelondagi toğ-çanği kurortining birinçi bosqiçini kelasi yil işga tuşiriş rejalaştirilgani, şuningdek, Çiroqçidagi Tarağay, Kitobdagi Başir va Yakkaboğdagi Tatar qişloqlarini ham etnoturizm markazlariga aylantiriş imkoniyatlari körsatib ötildi. Endi asosiy maqsad – uşbu taşabbuslarni izçil röyobga çiqariş, har bir loyihaning samarasini ta'minlaş va iqtisodiy ösişni insonlar hayotidagi ijobiy özgarişlarga aylantirişdir.

Noiba INOYATOVA,
Oliy Majlis Qonunçilik palatasi deputati.

MILLIY ÖZLIGIMIZ TIMSOLI

Tilimizda sifatli darsliklar, ilmiy va badiiy adabiyotlar yaratiş, zamonaviy atamalarni izçil qöllaş, elektron luğatlar va raqamli resurslarni rivojlantiriş, davlat idoralarida iş yuritiş madaniyatini takomillaştiriş uning mavqeini mustahkamlovçi muhim omillardir. Yozuvning qulayligi ana şu jarayonlarni qöllab-quvvatlaşi mumkin, ammo kutilgan natijaga erişiş uçun ta'lim sifati, til me'yorlariga rioya etiş va jamoatçilik bilan samarali muloqot ham birdek muhim.

Fikr

Özbek tilining tarixiy taraqqiyotiga nazar taşlasak, uning nufuzi doimo ma'rifat va milliy uyğoniş ğoyalari bilan çambarças boğliq bölganini köramiz. Alişer Navoiy ona tilimizning badiiy va fikriy imkoniyatlarini yuksak darajada namoyon etgan bölsa, jadid ma'rifatparvarlari tilni savodxonlik, zamonaviy bilim va jamiyat taraqqiyotining muhim vositasi sifatida qadrlagan. Bugun ham ana şu meros oldimizga katta mas'uliyat yuklaydi: özbek tilini faqat tarixiy qadriyat sifatida asraş emas, uni zamonaviy ilm-fan, texnologiya va xalqaro axborot makonida faol qöllanadigan vosita sifatida ham rivojlantirişimiz zarur.



Ayni çoğda davlat tilining mavqeini mustahkamlaş boşqa millat va elatlarning lisonlariga hurmat tamoyili bilan uyğun keçişi lozim. Özbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oşiriş jamiyatimizdagi özaro hurmat va hamjihatlikni mustahkamlaş bilan birga olib borilişi muhim. Çunki til siyosatining samarasi nafaqat huquqiy me'yorlarda, balki fuqarolarning kundalik hayotida yaratiladigan imkoniyatlar, ta'lim sifati va ijtimoiy muloqot madaniyatida ham namoyon böladi.

Şu yil 10-sentyabr kuni Oliy Majlis Senatining 19-yalpi majlisida "Lotin yozuviga asoslangan özbek alifbosini joriy etiş töğrisida"gi Özbekiston Respublikasi Qonuniga özgartiriş kiritiş haqida"gi qonunni muhokama qilgan va ma'qullagan edik. Unda lotin yozuviga asoslangan özbek alifbosi 28 ta harf va 1 ta tutuq belgisidan iborat bölişi, şuningdek, yangi tahrirdagi alifboga ötiş jarayonida fuqarolar va taşkilotlarning huquq va manfaatlarini inobatga oliş maqsadida qonun kuçga kirguniga qadar amaldagi alifbo asosida rasmiylaştirilgan hujjatlar, milliy valyuta va qimmatli qoğozlarning muomalada bölişiga tösqinlik qilinmasligi belgilangan edi.

21-oktyabrda esa mazkur qonunning Prezidentimiz tomonidan imzolanişi bizga tarixiy ahamiyat kasb etuvçi muhim haqiqatni yana bir bor eslatdi: ona tiliga hurmat – ötmişni e'zozlaş bilangina çeklanmaydi, u kelajak uçun mas'uliyatni ham anglatadi. Tilimizning bugungi nufuzi uni qay darajada asraşimiz, rivojlantirişimiz va yangi avlodga qanday imkoniyatlar bilan yetkazişimizga ham boğliq. Şu sababli, alifbo islohotining samarasi ham uning mazmunini töğri anglaş, izçil joriy etiş va özbek tilining barça sohalardagi imkoniyatlarini kengaytiriş bilan belgilanadi.

Özbek tili – milliy özligimiz, ma'naviy merosimiz va davlatçiligimiz timsoli. Uni qadrlaş, ravnaq toptiriş va zamonaviy taraqqiyot bilan uyğunlaştiriş barçamizning umumiy vazifamizdir. Işonamizki, ona tilimizni rivojlantirişga qaratilgan sa'y-harakatlar yoşlarimizning savodxonligi, salohiyati va özbek tilining raqamli makondagi imkoniyatlarini kengaytirişga, uning xalqaro miqyosdagi nufuzini mustahkamlaşga xizmat qiladi.

Aksavli TUMIŞOVA,
Oliy Majlis Senati a'zosi.

2030-yil 1-yanvardan boşlab tibbiyot va farmatsevtika faoliyati bilan şuğullaniş huquqi faqat muayyan mutaxassislik böyiça davlat röyxatidan ötgan şaxslarga beş yil muddatga beriladi.

MILLAT RUHINING QANOTI

Prezidentimizning Özbek tili bayrami kuni munosabati bilan xalqimizga yöllagan tabrigi barça yurtdoşlarimiz, xususan, ilm ahli, ijodkorlar, ta'lim sohasi vakillari, yoşlar tomonidan qizğin kutib olindi. Bu bejiz emas, albatta. Zero, tabrikda ona tilimizning milliy özligimiz, tarixiy xotiramiz va ma'naviy taraqqiyotimizdagi beqiyos örni çuqur ifoda etilişi bilan birga, uning ta'lim, ilm-fan va zamonaviy texnologiyalardagi mavqeini yanada mustahkamlaş, davlat idoralarida hujjatlarni ravon va tuşunarli tilda yuritiş, sifatli ilmiy adabiyotlar va elektron resurslarni köpaytiriş, sun'iy intellekt imkoniyatlaridan özbek tili ravnaqi yölida foydalaniş kabi muhim vazifalar belgilandi.

Nuqtai nazar



Milliy lisonimizning boy imkoniyatlarini zamonaviy bilimlar va innovatsiyalar bilan uyğunlaştiriş, uning xalqaro nufuzini oşirişga qaratilgan çaqiriqlar alohida ahamiyatga ega. Bugun tilni asraşning özi kifoya emas, uni zamon bilan hamnafas rivojlantiriş, hayotimizning barça sohalarida tölaqonli qöllanilişiga erişiş zarur.

Binobarin, zabon va millat hamişa bir-birini boyitib, uyğunlikda taraqqiy etadi. Şu ma'noda, ona tili nafaqat ötmiş, bugun va kelajakni mustahkam boğlab turuvçi ma'naviy köprik, balki millatning jahon hamjamiyatidagi örni va yuksak kamolotini belgilovçi muhim mezondir.

Ma'lumotlarga köra, bugungi kunda dunyoda 7 170 ta lison mavjud. Ularning bor-yöği 200 ga yaqinigina rasmiy yoki davlat tili maqomiga ega, xolos. Özbek tilining ana şu e'tirof etilgan lisonlar qatorida bölişi ona xalqimiz, uluğ millatimiz, buyuk Vatanimizning baxtu iqbol quyoşi jahon osmonida porlayotganiga yorqin isbotdir.

Şuningdek, hozirgi paytda dunyo tillarining taxminan 44 foizi, ya'ni 3 200 dan ortiği yöqolib ketiş xavfi ostida qolmoqda. Bu har bir xalqni öz ona tilining taqdiri, uning bugungi mavqei va ertangi istiqboli haqida jiddiy öylaşga çorlovçi ogohlik qöngiroğidir. Axir tilning yöqolişi – asrlar davomida şakllangan tarixiy xotira, milliy tafakkur va bebaho ma'naviy merosning ham boy berilişi demak. Şu ma'noda, ona tilimizning boy imkoniyatlarini töla oçib beriş, jamiyat hayotining barça jabhalaridagi mavqeini mustahkamlaş hamda zamon talablari asosida izçil rivojlantiriş barçamizdan yuksak mas'uliyat va fidoyilik talab etadi. Zotan, özbek tili asrlar silsilasida sayqal topgan, boy luğat tarkibi, keng ifoda imkoniyatlari va yuksak badiiy salohiyati bilan ajralib turadigan eng qadimiy zabonlardan biridir.

Ona tilimiz imkoniyatlarini öz ijodiy merosi misolida olamga köz-köz qilgan buyuk şoir Alişer Navoiy "Muhokamat ul-luğatayn" asarida turkiy tillar, jumladan, özbek tilining yuzaga keliş tarixini Nuh payğambarning öğli Yofas nomi bilan boğlaydi. Uning boşqa har qanday tillardan farqini "tez tuşunilişi", "har bir sözning teran ma'noga egaligi", "tabiati toza va musaffoligi", "talaffuzi sodda va ravonligi"da deb yozadi. Şubhasiz, zamonlar oşa jahon ahlini hayratga solib kelayotgan boy adabiy merosimiz, ya'ni xalq oğzaki ijodi namunalari va yozma manbalarimiz aynan şu til qudratini avloddan-avlodga yetkazmoqda. Onalar allasida, ota-bobolar ögitida, momolarimiz söylagan ertak va afsonalarda ona tilimizning nafosati, hayotiy qudrati va mangu şukuhi özining yorqin ifodasini topgan.

Avar xalqining yetuk şoiri Rasul Hamzatov bir şe'rida "Jahon minbaridan yangramasa ham, Jonimga Masihdir onajon tilim", deb yozadi. Bu misralarda ona tiliga çeksiz muhabbat va ehtirom tuyğulari bilan birga, armon va taassuf kayfiyati ham aks etgan. Biz, özbeklar, haqli ravişda faxrlansak arziydiki, Prezidentimiz Şavkat Mirziyoyev BMT Boş Assambleyasining 75-sessiyasida özbek tilida nutq sözladi. Jahon minbarida ona tilimizning jaranglaşi qalbimizga ğurur va iftixor bağişlagan bemisl tarixiy voqea böldi. Uşbu unutilmas lahzalar zamirida xalqimizning asrlar davomidagi orzu-intilişlari, mustamlakaçilik va zöravonlik davrlarida turli zahmatu maşaqqatlarda toblangan milliy ruh va ma'naviy jasorati mujassamdir.

Davlatimiz rahbarining taşabbusi bilan 21-oktyabr – "Özbek tili bayrami kuni" etib belgilanişi esa milliy özligimizning boş mezoni bölgan ona tilimizning davlat va jamiyat hayotidagi nufuzini yuksaltiriş, uning qadr-qimmati va ijtimoiy maqomini yanada oşiriş yölidagi muhim qadam böldi. Dunyoda bayramlar köp, şodiyonalar turliça, ammo millat sifatida özligimizni anglatadigan, tarixiy xotiramiz va milliy ğururimizni uyğotadigan, qalbimizni öz lisonimizga çeksiz mehr-muhabbat bilan töldiradigan Özbek tili bayrami kunining şukuhi özgaça. Zero, bu sana millatning asriy orzu-armonlari röyobi, ma'naviy qudratining tantanasidir.

Töğri, bugun jahon maydoniga faqat "men", "özim" degan iddaolar bilangina çiqib bölmasligi ayon. Zamonaviy dunyoda muştarak maqsadlar yölida birlaşiş, hamkorlik va hamjihatlikning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Şu ma'noda, zamonamiz yoşlaridan xorijiy tillarni mukammal biliş, jahon ilm-fani va madaniyati yutuqlarini puxta özlaştiriş talab etiladi. XX asr boşlarida jadid bobomiz Mahmudxöja Behbudiy "Ikki emas, tört til lozim"ligini uqtirib, yurt farzandlarini bilimli va ma'rifatli bölişga tağib etgan edi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Jadidlar ğoyalari yangi Özbekiston strategiyasi bilan hamohang". Şu ma'noda, davlatimiz rahbarining quyidagi iqtibosi bugungi davrning ötkir nafasi, globallaşuv jarayonida ona tilimizning qadr-qimmatini uluğlaş borasidagi çinakam haqiqat ovozidir: "Men bugun aziz bolalarimizga murojaat qilib, XX asr boşida olti tilli – özbek, arab, fors, hind, turk va rus tillarida luğat tuzgan maşhur alloma Ishoqxon Ibratning mana bu hikmatli sözlarini eslatmoqçiman: "Bizning yoşlar, albatta, boşqa tilni biliş uçun sa'y-harakat qilsinlar, lekin avval öz ona tilini közlariga tötiyo qilib, ehtirom körsatsinlar. Zero, öz tiliga sadoqat – bu vataniy işdir".

Bugun yurtimizda özbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini yuksaltiriş, ijtimoiy hayotning barça jabhalarida mavqeini mustahkamlaş borasida olib borilayotgan ijobiy islohotlar bu qaraşlarning amaliy ifodasidir. Jumladan, Prezidentimizning 2020-yil 20-oktyabrdagi "Mamlakatimizda özbek tilini yanada rivojlantiriş va til siyosatini takomillaştiriş çora-tadbirlari töğrisida"gi Farmonida özbek tilining davlat tili maqomidagi nufuzini yanada oşiriş, uning ilm-fan va zamonaviy axborot texnologiyalari tili sifatidagi imkoniyatlarini kengaytiriş, sofligini saqlaş, luğaviy boyligini izçil boyitib boriş hamda xalqaro miqyosdagi mavqeini mustahkamlaş ustuvor vazifalar sifatida belgilangan edi. Ularning ijrosini ta'minlaş maqsadida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat tilini rivojlantiriş departamenti, uning qoşida esa Özbek tilini rivojlantiriş jamğarmasi taşkil etildi. Ötgan davr oraliğida mazkur jamğarmaning bevosita moddiy va ma'naviy qöllab-quvvatlaşi bilan tilşunos olimlarimiz tomonidan 6 jildli "Özbek tilining izohli luğati" yaratildi. Şuningdek, turli sohaviy luğatlar, monografiya, darslik va öquv qöllanmalari muntazam çop qilinib, keng öquvçilar ommasiga yetib bormoqda. Tilimiz jozibasini jahonga yoygan mutafakkir bobomiz Alişer Navoiyning hayoti, faoliyati va ijodiy merosiga bağişlangan 4 jildli "Alişer Navoiy ensiklopediyasi"ning naşr etilişi ham ma'naviy hayotimizda ulkan voqealardan biri böldi. Har yili an'anaviy tarzda ötkazib kelinayotgan "Jonajon özbek tilim" körik-tanlovi ona tilimizni keng ommalaştiriş yölidagi muhim taşabbuslardandir.

Prezidentimizning 2025-yil 20-oktyabrdagi "Davlat tilini yanada rivojlantirişga oid qöşimça çora-tadbirlar töğrisida"gi qarori esa bu boradagi sa'y-harakatlarni yangi bosqiçga olib çiqib, uning zamonaviy taraqqiyot talablariga mos ravişda rivojlanişini ta'minlaşga xizmat qilmoqda. Şubhasiz, hozirgi kunda mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barça sohalarida davlat tili imkoniyatlaridan töliq va samarali foydalaniş, ta'lim taşkilotlarida özbek tilini öqitiş tizimini takomillaştiriş, uning sofligini saqlaş va muntazam boyitib boriş, zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalaşuvini ta'minlaş, xalqaro miqyosdagi örni va nufuzini kengaytiriş borasida köplab işlar bajarilayotganini e'tirof etiş joiz.

Birgina Fanlar akademiyasi tomonidan köp jildli "Özbekiston milliy qomusi"ni elektron şaklda tayyorlaş va e'lon qiliş böyiça normativ-huquqiy hujjat loyihasi tayyorlanganining özi yoq bu boradagi işlarning kelgusidagi miqyosini yaqqol körsatib turibdi. Qolaversa, özbek tilini raqamlaştiriş, ya'ni sun'iy intellekt yordamida qöllab-quvvatlaşga kamarbasta böladigan elektron platforma işlab çiqiş böyiça sa'y-harakatlar ham jadallik bilan olib borilmoqda. "Ona tili. Qomus" kitobining yaratilgani, köp jildli "Özbek şevalarining izohli luğati" dasturining amalga oşirilayotgani ham zabon rivoji yölidagi salmoqli yutuqlardan bölib, milliy til salohiyatini teran anglaş, uning tarixiy ildizlari va zamonaviy taraqqiyot imkoniyatlarini ilmiy asosda yoritişga xizmat qilişi, şubhasiz.

Lisonimiz ravnaqiga qaratilgan bu kabi ezgu işlar özbek tilining tarixiy ildizlari, bugungi imkoniyatlari va kelajak taraqqiyoti örtasidagi uzviylikni ta'minlab, milliy özligimizning muhim va muqim tayançi sifatidagi mavqeini yanada mustahkamlaydi. Zero, ona tiliga e'tibor va uning erkin rivoji uçun yaratilayotgan şart-şaroitlar nafaqat milliy özligimiz va tarixiy xotiramizni asraş, balki jamiyatning intellektual salohiyatini yuksaltiriş, davlatçilik asoslarini mustahkamlaş, Özbekistonning jahon hamjamiyatidagi munosib örnini ta'minlaşning ham muhim omilidir.

Maqsud ASADOV,
Özbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Özbek tili, adabiyoti va folklori instituti direktori, filologiya fanlari doktori, professor.

Özbekiston – Ozarbayjon:

IŞÇI-XODIMLAR HUQUQLARI HIMOYASIGA MUŞTARAK YONDAŞUV

Özbekiston kasaba uyuşmalari Federatsiyasida Ozarbayjon kasaba uyuşmalari Konfederatsiyasi raisi Sahib Ali öğli Mamedov rahbarligidagi delegatsiya vakillarining mamlakatimiz kasaba uyuşmalari faollari bilan uçraşuvi bölib ötdi.

Muloqot

Tadbirda Özbekiston kasaba uyuşmalari Federatsiyasi raisi Qudratilla Rafiqov Prezidentimiz Şavkat Mirziyoyev va Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevning muntazam oliy darajadagi özaro taşriflari, samimiy muloqotlari natijasida ikki davlat örtasidagi döstlik aloqalari yangi bosqiçga kötarilganini alohida ta'kidladi.

Aytilganidek, Özbekiston – Ozarbayjon xalqi tili, dini, madaniyati, an'ana va urf-odatlari bir-biriga juda öxşaş qardoş xalqlar bölib, bu döstlikning ildizlari uzoq tarixga borib taqaladi. Ozarbayjonda uluğ özbek şoiri, mutafakkiri hamda davlat arbobi Alişer Navoiyning, Özbekistonda esa ozarbayjon şoiri va ma'rifatparvari Nizomiy Ganjaviyning asarlari sevib öqiladi.

Tadbirda mehmonlarga mamlakatimizda davlatimiz rahbari taşabbusi bilan xalq manfaatlarini ta'minlaş hamda inson qadrini uluğlaş maqsadida amalga oşirilayotgan tizimli islohotlar, şuningdek, 14 ta tarmoq kasaba uyuşmasi, 14 ta hududiy Kengaş, 35 mingta boşlanğiç taşkilotdagi 8 milliondan ortiq a'zolarni birlaştirgan Özbekiston kasaba uyuşmalari faoliyati töğrisida batafsil ma'lumot berildi.

Özbekiston kasaba uyuşmalari Federatsiyasi va Ozarbayjon kasaba uyuşmalari Konfederatsiyasi nafaqat mamlakat içkarisida, balki xalqaro kasaba uyuşmalari harakatida ham alohida öringa hamda öziga xos nufuzga ega. Ikki mamlakat kasaba uyuşmalari mehnatkaşlarning huquq va manfaatlarini himoyalaş, munosib mehnat şaroitlarini yaratiş kabi yönalişlarda davlat hamda iş beruvçilar bilan ijtimoiy hamkorlikda tizimli işlarni olib bormoqda.

Xususan, mamlakatimizda Tripartizm tamoyili asosida Özbekiston hukumati, Özbekiston kasaba uyuşmalari Federatsiyasi hamda Iş beruvçilar Konfederatsiyasi örtasida Boş jamoa kelişuvi amal qilayotir. 2017-yilda Özbekiston kasaba uyuşmalari tizimida 16 ta sanatoriy va dam oliş uyi faoliyat körsatgan hamda ularda 4 mingga yaqin örinlar mavjud bölgan bölsa, ötgan ön yilda qator yangi zamonaviy sanatoriylar qurilib, foydalanişga topşirilişi natijasida bugungi kunda sanatoriylar soni 32 taga, ulardagi örinlar soni esa salkam 8 mingtaga yetkazildi.

Öz navbatida, Ozarbayjon kasaba uyuşmalari Konfederatsiyasi raisi Sahib Mamedov öz mamlakati kasaba uyuşmalari faoliyatining ustuvor yönalişlari hamda hamkorlikni rivojlantirişning istiqbollariga töxtalib ötdi. Sohada özaro tajriba almaşiş borasidagi fikrlarini bayon etdi.

Özbekiston kasaba uyuşmalari Federatsiyasi hamda Ozarbayjon kasaba uyuşmalari Konfederatsiyasi örtasida özaro manfaatli aloqalarni yanada yuqori bosqiçga olib çiquvçi hamkorlik Memorandumi imzolandi. Unda tomonlar özaro tenglik va hurmat prinsiplari asosida kasaba uyuşmalari a'zolarining mehnat hamda ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlarini munosib himoyalaş borasidagi aloqalarni mustahkamlaşni hamkorlikning asosiy yönalişi sifatida qayd etdi.

Şundan söng iştirokçilar e'tiboriga Özbekiston va Ozarbayjon kasaba uyuşmalari tizimidagi sanatoriylar, ulardagi servis xizmatlari töğrisidagi taqdimotlar havola qilindi. Mehmonlar Özbekiston kasaba uyuşmalari Federatsiyasi tizimidagi "Çinobod" va "Turon" sanatoriylari, Davolaş-profilaktika markazi, şuningdek, Özbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi faoliyati bilan ham tanişdi.

Muhabbat ÖRMONBEKOVA,
Özbekiston kasaba uyuşmalari Federatsiyasi Matbuot xizmati rahbari.

Tabarruk zamin

KÖHNA GÖŞADA ETNOTURIZM ŞAHARÇASI

Peşku tumanidagi qadimiy Afşona qişloğida etnoturizm şaharçasi qad rostlayapti. Bu yerdagi 1,5 gektar maydonda köhna göşaning X asrga xos qiyofasini yaratiş ustida iş olib borilmoqda.

Afşona buyuk ajdodimiz, tib ilmining sultoni Abu Ali ibn Sino tavallud topgan qişloq sifatida dunyoga tanilgan. Şundan kelib çiqqan holda majmua tarkibida Ibn Sinoning muzey körinişidagi ramziy uyi qad rostlaydi. Undan alloma yaşagan davrni eslatib turuvçi kitoblar, lavhlar, dorivor ösimliklar, tibbiy asbob-uskunalar, jarrohlik stoli, hammom, tança, tandir örin oladi. Bemorlarni tabobat yöli bilan davolaş usullari körgazma tariqasida taşkil etiladi. Kigizdan poyabzal tikiş, maşhur "zandaniça" matosini, qamişdan böyra töqiş, quritilgan mevalardan turli şifobaxş damlamalar tayyorlaş, parhezbob nonlar yopiş orqali sayyohlar köz öngida buyuk alloma yaşagan davr gavdalantiriladi.

Loyiha qiymati 1,5 mln. AQŞ dollari bölgan majmuada sayyohlar uçun nafaqat tarixiy meros, balki mahalliy turmuş tarzi bilan ham yaqindan tanişiş imkoni yaratiladi, an'anaviy mehmondöstlik zavqidan bahramand böladi.

E'tiborlisi, etnoturizm şaharçasi qadimiy göşaning sayyohlik jozibadorligini oşiradi. Ellikdan ziyod yangi iş örinlari yaratilişiga ham olib keladi.

Ma'lumot tariqasida aytiş joizki, tarixçi Muhammad Narşaxiyning yozib qoldirişiça, "Afşona" söğd tilida "Duo tezroq mustajob böladigan muqaddas joy" ma'nosini anglatadi. Ta'kidlanganidek, Ibn Sino milodiy 980 yilda şu qişloqda tuğilgan.

Istam IBROHIMOV
("Xalq sözi").

PROFESSOR XONADONIDAGI ZIYO MASKANI

Guliston davlat universiteti professori Ravşan Mahmudov tadbirlarga, ayniqsa, yoşlar davrasiga heç qaçon quruq qöl bilan kelmaydi. Qayerga bormasin, qaysi minbarga çiqmasin, albatta, qölida kitob böladi. U har aytar sözida kitobxonlikni tarğib qiladi, kitobni uluğlaydi. Yaqinda olim yana bir ibratli işni amalga oşirdi: Guliston tumanining Mevazor mahallasidagi xonadonida kutubxona taşkil etdi.

Ibrat



– Kutubxonamiz fondi 10 ming nusxadan ziyod, – deydi "Mehnat şuhrati" ordeni sohibi Ravşan Mahmudov. – Kitoblar orasida bolaligimda olinganlari ham bor. Ya'ni ziyo maskanini qariyb 60 yildan buyon yiğilgan adabiyotlar asosida şakllantirdik.

Darhaqiqat, uşbu kutubxona mundarijasi ança keng. Unda badiiy, ilmiy-ommabopdan tortib, bolalar uçun möljallangan bölimlar ham mavjud. Olimning 70 dan ortiq ilmiy, publitsistik töplamlari, qöllanmalari bir yirik javonni töldirgan. Yana bir öziga xos bölim taşkil qilinganki, uning tokçalariga mualliflari dastxat yozib bergan kitoblar qöyilgan.

E'tiborlisi, mazkur kutubxonadan faqat Mevazor mahallasi ahli emas, GulDU öqituvçilari va talabalari, yoşlar va umuman, şu atrofdagi kitobxonlarning barçasi foydalanişi mumkin.

Ahmadali ŞERNAZAROV
("Xalq sözi").

REKLAMA

TIBBIYOT XODIMLARINING KASBIY MALAKASINI RIVOJLANTIRIŞ MARKAZI QUYIDAGI LAVOZIMLARGA KAFEDRALAR BÖYIÇA TANLOV E'LON QILADI:

Terapiya fakulteti:
1. Endokrinologiya kafedrasi assistenti;
2. Psixiatriya va psixoterapiya kafedrasi dotsenti;
3. Funksional diagnostika kafedrasi professori;
4. Gastroenterologiya va fizioterapiya kafedrasi dotsenti;
5. Dermatovenerologiya va kosmetologiya kafedrasi dotsenti;
6. Nevrologiya kafedrasi assistenti.

Pediatriya fakulteti:
1. Pediatriya kafedrasi professori;
2. Bolalik davri asab kasalliklari kafedrasi professori, dotsenti, katta öqituvçisi;
3. Pediatriyada anesteziologiya va intensiv terapiya kafedrasi assistenti;
4. Akuşerlik-ginekologiya va perinatal meditsina kafedrasi assistenti, dotsenti;
5. 2-Akuşerlik va ginekologiya kafedrasi professori, assistenti.

Xirurgiya fakulteti:
1. Xirurgiya va bolalar xirurgiyasi kafedrasi professori;
2. Şoşilinç tibbiy yordam kafedrasi dotsenti, assistenti;
3. Anesteziologiya va reanimatologiya kafedrasi dotsenti;
4. Otorinolaringologiya kafedrasi professori;
5. Urologiya va andrologiya kafedrasi professori;
6. 1-Ultratovuş diagnostikasi kafedrasi assistenti;
7. 1-Stomatologiya kafedrasi katta öqituvçisi;
8. Xirurgik stomatologiya kafedrasi dotsenti.

Tibbiy profilaktika fakulteti:
1. Neyroreabilitatsiya kafedrasi professori;
2. Yuqumli va bolalar yuqumli kasalliklari kafedrasi mudiri;
3. Klinik laborator diagnostika kafedrasi stajyor öqituvçisi, assistenti.

Menejment, ijtimoiy va birlamçi soğliqni saqlaş fakulteti:
1. Neyroxirurgiya kafedrasi assistenti;
2. Oilaviy tibbiyot kafedrasi, kasb kasalliklari patologiyasi kursi bilan kafedrasi assistenti.

Manzil: Toşkent şahri, Mirzo Uluğbek tumani,Parkent köçasi, 51-uy. Telefon: 71-267-60-74.

Özbekiston xalq yozuvçisi Odil Yoqubovning maşhur «Uluğbek xazinasi» romanining ikkinçi qismi ingliz tiliga tarjima qilinib, AQŞning «Amazon» savdo platformasida sotuvga çiqarildi.

Xalq sözi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
Özbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengaşi
Özbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengaşi

Boş muharrir Ötkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda Özbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan röyxatga olingan. Naşr indeksi – 429. Buyurtma G-1042. 17 780 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qoğoz bichimi A-2. Bahosi kelişilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab oliş uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qölyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilişi uchun obunani rasmiylaştirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilişiga "Sharq" naşriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent şahri,
Islom Karimov köchasi, 55-uy.
Navbatçi muharrir F. Bozorov.
Musahhih S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon köchasi, 41. ÖzA yakuni – 00.15 Topşirildi – 00.25 1 2 3 4 5 6